

**XIX ASR IKKINCHI YARMI–XX ASR BOSHLARIDA
SAMARQAND VILOYATI IQTISODIY HAYOTI**

AIFU Tarix yo'nalishi 2-kurs magistranti

Nuraliyev Xurshid Xusniddinovich

Annotasiya: *mazkur maqolada muallif tomonidan XIX- asrning ikkinchi yarmi XX- asr boshlarida Samarqand viloyatining ma'muriy boshqaruvi, hududiy bo'linish tizimi, yer-suv tuzilishi, iqtisodiy islohotlar mohiyati va sabablarini o'rganishdan iborat. Shuningdek, Samarqand qishloq xo'jaligi, sanoati, hunarmandchilik ahvoli mavzuga doir manbalar, statistik materiallar va xorijiy manbalar orqali tahlil qilingan.*

Аннотация: *В данной статье автор исследует сущность и причины административного управления Самаркандской областью, систему территориального деления, земельно-водную структуру, а также экономические реформы во второй половине XIX - начале XX века. Также на основе соответствующих источников, статистических материалов и зарубежных источников было проанализировано состояние сельского хозяйства, промышленности и ремесел Самарканда.*

Annotation: *This article aims to study the administrative administration, territorial division system, land and water structure, and the essence and reasons for economic reforms of the Samarkand region in the second half of the 19th and early 20th centuries. The state of Samarkand agriculture, industry, and crafts is also analyzed using relevant sources, statistical materials, and foreign sources.*

Kalit so'zlar: *Yer-suv munosabatlari, Iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli*

Ключевые слова: *Земельно-водные отношения, экономическое и социальное положение*

Key words: *Land-water relations, Economic and social situation*

Bugun, biz magistrning oldida o'ta muhim vazifa turibdi, u ham bo'lsa tariximizni kelajak avlodga haqqoniy tarix sifatida yetkazish. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqand viloyatining faqatgina iqtisodiy axvoli emas balki barcha soxalarni bitta maqolada qamrab olish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati Rossiya imperiyasining mustamlakasi sifatida o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Ushbu davrda yer-suv resurslarini boshqarish tizimi mustamlakachilik ehtiyojlariga moslashtirilib, mahalliy aholining manfaatlari chetga surilgan. Bu jarayon viloyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mazkur mavzuni o'rganish orqali mustamlakachilik siyosatining Samarqand va umuman Turkiston o'lkasida qanday oqibatlariga olib kelgani haqida ko'proq ma'lumot olish mumkin.

Rossiya imperiyasi tomonidan o'tkazilgan agrar siyosat va uning mustamlakachilik boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, yer egaligi va suv resurslarini nazorat qilish choralari, o'lkadagi yer-suv munosabatlarini tubdan o'zgartirgan. Bu holat mahalliy aholining iqtisodiy tengsizlikka va qashshoqlikka duchor bo'lishiga sabab bo'ldi. Mazkur mavzu mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy adolatsizlikka ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi.

Yer-suv munosabatlaridagi o'zgarishlar natijasida Samarqand viloyatida paxtachilik kabi eksportga yo'naltirilgan sohalar rivojlandi, ammo bu mahalliy aholini oziq-ovqat ekinlaridan mahrum qildi. Qishloq xo'jaligidagi bu o'zgarishlar mahalliy dehqonlar va yer egalari hayotiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganish mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Mustamlakachilik davrida mahalliy boshqaruv tizimlari, urf-odatlar va diniy institutlarning Rossiya imperiyasi manfaatlariga moslashtirilishi mahalliy aholi o'rtasida norozilik va qarshilik harakatlariga sabab bo'ldi. Ushbu mavzu mazkur ijtimoiy ziddiyatlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Samarqand viloyati misolida mustamlakachilik davrida yuzaga kelgan yer-suv munosabatlari tizimining muammolarini o'rganish hozirgi kunda agrar

siyosat, suv resurslarini boshqarish va iqtisodiy adolatni ta'minlashda muhim saboqlar beradi.

Mavzu nafaqat tarixiy jihatdan muhim, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni chuqurroq tushunish uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur tadqiqot o'tmish voqealari orqali bugungi muammolarni hal qilish yo'llarini izlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyatining yer-suv munosabatlari tizimini mustamlakachilik sharoitida tahlil qiladi. Ushbu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan o'rnatilgan ma'muriy boshqaruv va agrar siyosat mahalliy aholi hayotiga, qishloq xo'jaligi tizimiga, shuningdek, irrigatsiya inshootlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki:

Turkiston yer-suv munosabatlarining mustamlakachilik davrida o'ziga xos jihatlari ilk bor o'zaro aloqadorlik va mintaqaviy xususiyatlar nuqtai nazaridan tizimli ravishda tahlil qilindi.

Samarqand viloyatining irrigatsiya tizimlari va sholichilikni rivojlantirishdagi o'rni Rossiya imperiyasi agrar siyosati doirasida qiyosiy tahlil asosida baholandi, shuningdek, paxtachilikka ixtisoslashuv jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini yoritildi.

Rossiya imperiyasining yer egaligi siyosati va mahalliy aholining yer-suvdan foydalanish huquqlariga nisbatan cheklovlar va ularning ijtimoiy tengsizlikka olib kelgan holatlari yangi tarixiy manbalar asosida ochib berildi.

Mahalliy dehqonlarning an'anaviy qishloq xo'jaligi faoliyati va yangi mustamlakachilik tartiblarining o'zaro to'qnashuvi jarayonlari haqida birlamchi manbalar asosida chuqur tahlil kiritildi.

Mustamlakachilik siyosati davrida Zarafshon vodiysida suv taqsimoti, ekin maydonlarining qisqarishi va mahalliy aholining qishloq xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar mintaqaviy statistik ma'lumotlar yordamida miqdoriy jihatdan o'rganildi.

Mazkur ish nafaqat o‘z davridagi yer-suv munosabatlari tizimini chuqur o‘rganishga, balki bu holatning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tushunishga ham imkon yaratadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati sharoitida vujudga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy va agrar jarayonlar, shu jumladan, yer-suv munosabatlari tizimi.

Mustamlakachilik davrida Samarqand viloyatining yer-suv munosabatlari tizimi, xususan, Rossiya imperiyasining ma‘muriy boshqaruv tizimi va iqtisodiy siyosatining agrar resurslardan foydalanish, yer egaligi va suv boshqaruvi tizimiga bo‘lgan ta‘siri. Tadqiqot, shuningdek, mustamlaka siyosatining mahalliy aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta‘siri va yer-suv resurslari bo‘yicha o‘zgartirishlar jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mustamlakachilik sharoitida Samarqand viloyatining yer-suv munosabatlari tizimida yuz bergan o‘zgarishlarni, bu tizimning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy ta‘sirlarini tahlil qilish va ularning viloyat qishloq xo‘jaligi hamda hunarmandchiligi rivojlanishiga ko‘rsatgan ta‘sirini aniqlash.

Ma‘muriy boshqaruv tizimini o‘rganish: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida viloyatda amalda bo‘lgan Rossiya imperiyasi ma‘muriy boshqaruv tizimining tuzilishi va mahalliy aholi hayotiga ta‘sirini tahlil qilish.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar va ularning samaradorligini baholash.

Mahalliy aholi tomonidan qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikning rivojlanishiga qaratilgan sa‘y-harakatlarni aniqlash

Milliy madaniyat va ma‘naviyatga ta‘sirni tahlil qilish:

Mustamlakachilik siyosatining mahalliy madaniyat, urf-odatlar va diniy hayotga ko‘rsatgan ta‘sirini o‘rganish.

Irrigatsiya va suv resurslarini boshqarish:

Samarqand viloyatidagi sug‘orish tizimining rivojlanishi, sholi va paxta yetishtirishda suv resurslaridan foydalanish jarayonlarini yoritish.

XIX- asr oxiri XX asr boshlarini o‘z ichiga oladi. Samarqand viloyati tarixining eng murakkab va ziddiyatli davri bo‘lib, erkin va ozod Turkiston xalqlarining mustamlaka kishaniga solinishi va bosqinchilarga qarshi kurashi mustamlaka ma‘muriy boshqaruv tizimi o‘rnatilishi; urf odati dini, madaniyati mutloqo yot bo‘lgan kelgindi xalqga itoat etish; Vatan boyliklarini talanishi, xalqni zo‘ravonlik bilan ezish mahalliy xalqning kambag‘allashib borishi; milliy madaniyat va ma‘naviyatni oyoq osti qilishi; ilg‘or ziyolilarning shakillanishi va ma‘rifatparvarlik faoliyatining boshlanish davridir.¹

Mustamlakachilik siyosatining zo‘ravonliklariga qarshi Samarqand viloyati aholisi birinchilaridan bo‘lib ozodlik kurashi aynan shu yillarda bo‘ldi. Samarqandda chorizmning mustamlaka tartibotiga qarshi kurashgan xalq harakati Turkiston bo‘ylab yoyildi.² XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib ko‘tarilgan milliy ozodlik kurashlari chorizm tuzumini larzaga keltirgan edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Turkiston general-gubernatorligining asosiy viloyatlaridan hisoblangan. Bu davr mobaynida Samarqand viloyati mustamlakachilik ma'muriy boshqaruvi tizimi doirasida boshqarilgan. Viloyati ma'muriy tizimi:³

1. Ma'muriy bo‘linma: Samarqand viloyati 1887-yilda tashkil etilgan bo‘lib, unga bir qancha uyezdlar (tumanlar) bo‘ysundirilgan, jumladan Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Zarafshonva Jizzax vohalaridagi boshqa hududlar. Har bir uyezdni Rossiya ma'murlari boshqargan turgan, ular mahalliy aholining barcha faoliyatiga qat'iy nazorat o‘rnatgan.

XIX asr o‘rtalaridan boshlab Yevropa mamlakatlarida kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi ssosan Rossiya imperiyasi kabi harbiy idora usuliga asoslangan davlatlarga ham o‘z tasirini o‘tkazmasdan qolmadi. Bu davrga kelib Rossiya imperiyasida iqtisodiy-siyosiy vaziyat o‘zgarib rus burjiyalari Yevropadagi rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning fan- texnika

¹ Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Т., 2013. – Б.111.

² Файзиёв А.Ф. История Самарканда в первой половине XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С.8

³ Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков.

hamda sanoat ishlab chiqarishi sohasida erishgan yutuqlarini o'z zavod fabrikalarida qo'llashga kirishgan.

Bundan tashqari XIX-asr oxiri XX asr boshlariga kelib Turkuston ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan to'laligicha Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilib boshlagan. Mahalliy aholi mustamlaka ma'muriyati tomonidan ezilib, o'lka xalqlarining hamma insoniy huquq va erkinliklari poymol etilgan Zo'rlik kuchlari bilan joriy etilgan mazkur boshqaruv tizmi asrlar davomida shakillanib keldi yer-suv munosabatlariga barham berdi va uni milliy qadriyatlar zamirida rivojlanishning yana bir imkoniyatidan mahrum etildi. Rossiya imperiyasi o'lkasida to'liq o'zining iqtisodiy foydasini ko'paytirish va siyosiy jihatdan nufuzini mustahkamlash uchun yer-suv munosabatlarida mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishdi. Bu siyosat oqibatida o'lka aholisi to'laqonli mustamlaka ma'muriyati ta'sir doirasiga tushib qoldi.⁴

O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasining hukumronligi o'rnatilgan XIX asr ikkinchi yarmidan keyingi davrda mustamlaka ma'muriyati yer va yerga egaligiga alohida e'tibir qaratgan. Hukumatning o'lkalardagi agrar siyosatining asosiy maqsadlaridan biri imperiya to'qimachilik sanoatini ya'niy Paxta xomashyosiga bo'lgan talabini qondirish bo'lgan. Shu sababli o'lka bosib olingan dastlabgi yillardan boshlab Farg'ona, Sirdaryo hamda Samarqand viloyatlarida yer egaligi, irrigasiya, meliorasiya ishlariga oid bir qator tadbirlar amalga oshirilgan. Ayni vaqtda mahaliy qishloq aholisining xo'jaligida og'ir qo'l mehnati talab qilinar, dehqonlar zamonaviy texnika, asbob-uskunalar deyarli yo'q bo'lgan.⁵ Tadqiqotchi A.P.Saviskiyning yozishicha cholikorlar, mardikorlarning ijaraga berilgan yer egalari bilan munosabatlarini hamma vaqt ham munosabatlari adolatli bo'lib kelmagan.

Paxtachilikni rivojlantirishda manfaatdor bo'lgan Rossiya imperiyasi yangi bosib olingan hududlarda yer-suv munosabatlarini o'rganishni boshladi

⁴ Халфин, Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-е 90-е гг. XIX в.) / Н.А. Халфин. - М.: Наука, 1965. - 468 с.

⁵ Усенбаев, К.У. Присоединение Южной Киргизии к России / К.У. Усенбаев. - Фрунзе: Киргизгосиздат, 1960. - 190 с.

Turkuston general-Gubernatori K.P.Kaufman bu borada o‘ziga berilgan “O‘lka ustida boshqaruvni mahalliy sharoitga muofiq o‘zgartirish” vakolatlaridan foydalanib, qator tadbirlarni amalga oshirgan.⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Файзиев А.Ф. История Самарканда в первой половине XIX века (учебное пособие).– Самарканд, – С.8.
- 2.Нильсен В.В. У истоков современного градостроительства Узбекистана XIX начало XX веков. - Т.1988. –С.181;
- 3.Абрамов М.М. Гузары Самарканда. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – 56 с.
- 4.Хорошихин А.Л. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб, 1876. – С.515.
- 5.Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С.100.
- 6.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2004. 7-том. – Б.113.

⁶ Миропиев, М.А. О положении русских инородцев / М.А. Миропиев. -СПб. : Синод. тип., 1901. - 515 с.